

BOSHLANG'ICH SINIF DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR ORQALI RAQAMLASHGAN DUNYONI O'RGATISH

Toshpulatova Niyoxon Shavkatjon qizi
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
E-mail: egamnazarovaniehon@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15100812>

Annotatsiya. Boshlang'ich sinf darslarida sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali raqamlashgan dunyoni o'rgatish – bu o'quvchilarga matematikani nafaqat darsda, balki hayotda, atrof-muhitda, o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar orqali o'rgatishning samarali usulidir. Raqamlashgan dunyo – bu raqamlar va hisoblashning kundalik hayotda qanday ishlashini ko'rsatadigan va bolalarning analitik fikrlashini rivojlantiradigan yondashuvdir.

Kalit so'zlar: Iqtidor, milliy mentalitet, dunyoqarash, tafakkur, fazilat, talent, raqamlashgan dunyo, jarayon.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga raqamlashgan dunyoni o'rgatish, ularni nafaqat matematikani, balki atrof-muhitda, kundalik hayotda raqamlar va hisoblashlarni qanday qo'llashni ham o'rgatishning muhim usulidir. Bu jarayonni o'quvchilarga qiziqarli, intuitiv va amaliy tarzda etkazish orqali amalga oshirish mumkin. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda har bir o'quvchi o'zini erkin his qiladi. Natijada o'rganish sifati yana oshadi.

Birinci navbatda mashg'ulotlar va faoliyatlar rejasi tuzib chiqiladi. Reja asosida ish olib boriladi. O'quvchilarga raqamlarni o'rganishning ko'plab usullarini taqdim etish kerak. Darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarga o'rganilgan bilimlarni amalda qo'llashga yordam beradi. Quydagi misollarni kiritishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Raqamli o'yinlar va topshiriqlar: O'yinlar orqali o'quvchilar raqamlar bilan ishlashni o'rganadilar. Masalan, o'yinlarda to'g'ri javobni topish uchun raqamlarni taqqoslash yoki hisoblash talab qilinadi.

Sayohatlar va ekskursiyalar: O'quvchilarga matematikani o'rganish uchun sayohatlar uyushtirish mumkin. Masalan, bolalar savdo do'koniga yoki bozorning turli bo'limlariga tashrif buyurib, narxlarini taqqoslash, to'lovlarni hisoblash orqali raqamlarni o'rganadilar.

San'at va musiqada raqamlar: San'at yoki musiqa mashg'ulotlarida shakllar va ritmlar orqali bolalarga raqamlarni tanishtirish. Bu ularning raqamlar bilan bog'liq hissiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Boshlang'ich sinflarda raqamlarni o'rgatish qiyin hisoblanadi. Buni real hayotda qo'llash orqali o'rgatilsa yana osonroq tushinadi. Bolalarga nafaqat raqamlarni nazariy o'rganish, balki ularni real hayotda qo'llashni ham o'rgatish kerak. Misol uchun to'lovlar va xaridlarni oladigan bo'lsak. O'quvchilar kichik do'konda xarid qilishni o'rganadilar. Bu jarayon orqali ular pulni hisoblash, buyurtmalarni yig'ish va o'zgarishlarni aniqlashni o'rganadilar. Yoki bo'lmasa tabiiy resurslar va o'lchovlar: O'quvchilar o'lchovlar, masofa va og'irliklarni o'lchashni o'rganishlari mumkin. Bu orqali ular fizik jarayonlarda matematikani qo'llashni o'rganadilar.

Shuni ham unitmasligimiz muhim hisoblanadi berilayotgan tushunchalar yoshga mos yondashuv asosida berilishi zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matematikani o'rgatishda raqamlarni qiziqarli va o'yinli tarzda o'rgatish muhimdir. O'quvchilarga bo'sh vaqtlarida qiziqarli mashg'ulotlar taqdim etish, ular uchun intuitiv tarzda tushunarli bo'lishi

kerak. Raqamli krossvordlar, rebuslar va bulmacalar o'quvchilarga matematikani yanada qiziqarliroq qilish uchun ishlatilishi mumkin. Qog'oz va qaychi o'yinlari: Oddiy matematik masalalar orqali bolalar raqamlar va hisoblashni o'rganadilar.

Texnologiyadan foydalanish foydalanish zamon talabi hisoblani. Chunki aynan texnologiya orqali sinfdagi bosh o'zlashtiruvchi hamda iqtidorli o'quvchilar darsda faol qatnashadilar. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda raqamlarni o'rgatishda texnologiyadan foydalanish juda foydalidir. Kompyuterlar yoki mobil qurilmalarda mavjud bo'lgan ta'lim dasturlari va o'yinlar bolalar uchun raqamli dunyoni o'rganishning qiziqarli va samarali usuli bo'lishi mumkin. Misol uchun, matematik o'yinlar, interaktiv dasturni ishlatish bolalar uchun yaxshi o'rganish muhitini yaratadi. Raqamlar bilan ishlash faqatgina o'qituvchining darsida emas, balki bolalarning kundalik hayotida ham davom etishi kerak. Ijtimoiy muhitda o'rganish samaraliroq hisoblanadi. O'quvchilar bir-birlari bilan o'ynagan o'yinlar, guruhli mashg'ulotlar, yoki raqamli san'at orqali o'z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

Bolalarni STEAMga jalb qilish, ushbu ta'lim maktabgacha yoshdan boshlab boshlanishi kerak, shuning uchun dasturlarni bolalar bog'chasiga kiritish zarur. STEAM ta'lim tizimi orqali bolada kreativlik, qund, qiziquvchanlik va hozirgi kunda eng muhim bo'lgan xususiyat-muammoni hal qilish qobiliyati shakllanadi. «STEAM fikrlash» bolalikdan boshlanadi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, STEAM- tabiiy fanlar, texnologiyalar, muhandislik, san'at va matematika fanlarini uyg'unlikda o'qitish uslubidir. STEAM texnologiyasi ta'limdan farqli ravishda bilimlarni alohida emas, o'zaro mutanosib holda olib borishni ta'minlab beradi. Bolalar o'zida nostandart fikrlash, muammoga bir nechta yechim topish va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi va bu uning kelajakdagi faoliyatida juda qo'l keladi. Bu esa STEAM texnologiyalarining bugungi kunda yosh avlod uchun juda ham katta o'rni borligini ko'rsatadi. STEAM texnologiyalarining bugungi kunda ommalashayotganini va samaradorligini, ta'limdagi afzalliklarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonlarida STEAM texnologiyalari qo'llash tavsiya qilinadi.

Xulosa.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar orqali raqamlashgan dunyoni o'rgatish bolalarga raqamlar va hisoblashlarni nafaqat matematika darslarida, balki atrof-muhitda va kundalik hayotda qanday qo'llashni o'rgatadi. Bu usul o'quvchilarning matematik fikrlashini rivojlantiradi va ularga yanada kengroq dunyoqarashni taqdim etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga raqamlashgan dunyoni o'rgatishning eng samarali yo'llari – bu real hayotdagi amaliy mashg'ulotlar, o'yinlar, san'at va musiqa, texnologiyalardan foydalanish va guruhli faoliyatlarni taqdim etishdir. Bu usullar orqali bolalar nafaqat raqamlar va hisoblashlarni o'rganadilar, balki ularni kundalik hayotda qo'llashga o'rganishadi. Shuningdek, bu o'quvchilarning matematik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga va dunyoqarashlarini kengaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Toshpo'latova M.I. Boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish T.: OOO «Jahon - Print», 2011.
2. Jumayev M.E, Tadiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O O'Y uchun darslik.) Toshkent. "Fan va texnologiyai" 2005 yil.
3. Jumayev M.E, Tadiyeva Z.G'. Boshlang'ich sinflarda matematikadan fakultativ darslarni

tashkil etish metodikasi. Toshkent. "TDPU" 2005 yil.

4. N.U.Bikbayeva. "2-sinf matematika darsligi" "O'qituvchi" Nashriyot-manbaa ijodiy uyi Toshkent-2000.
5. "Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi" S.Alixonov.
6. "Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi" M.E.Ju
7. Богоявленская Д.Б., Богоявленская М.Е., Одаренность: природа и диагностика. М. ЦНПРО, 2013
8. Davletshin M.G. va boshqalar. Qobiliyat va uning diagnostikasi. -T.:O'qituvchi, 1997.
9. Do'stmuhamedova SH.A., Nishanova Z.T. va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya – Toshkent:" O'qituvchi", 2013
10. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlash. – Toshkent: Fan.- 2003.
11. Ушаков Д. В. Психология интеллекта и одаренности»: Институт психологии РАН; Москва; 2011
12. Safarova R.G., Nurjanova R.U va boshqalar. Fanlarni chuqurlashtirilib o'qitiladigan sinflarda ta'limni tashkil etish texnologiyasi// Toshkent: "Sano-standart"
13. Safarova R.G., Musayev U va boshqalar. O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim strategiyasi muammolari va ta'lim mazmunining yangi modellari, ularni tatbiq etish yo'llari. - T.: Fan, 2005.
14. Eshboyeva S.Q. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologiyaga oid tushunchalarni shakllantirishda kreativ yondashuvni takomillashtirish", Termiz 2023.
15. Toshpulatova N.SH. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirish metodikasini takomillashtirish (tabiiy va aniq fanlar misolida)". Termiz 2023.